



O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MUHITI

O'zJOKU "Mediamenejment va mediamarketing"

kafedrası katta o'qituvchisi

Z.X.Rustamov

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, O`zbekistonda ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется экономическое развитие малого бизнеса и частного предпринимательства в стране в условиях социально ориентированной рыночной экономики Узбекистана и разрабатываются рекомендации.

ANNOTATION

This article analyzes the economic development of small business and private entrepreneurship in the country in the conditions of a socially oriented market economy in Uzbekistan and develops recommendations.

Kalit so'zlar. *Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, ilmiy-texnika taraqqiyot, tadbirkorlik sub'yektlari*

Key words. *Small business, private entrepreneurship, scientific and technical development, business entities*



Kirish. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo‘lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo‘yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘rinishini ta‘minlovchi asosiy bo‘g‘in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Respublikamizda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish va uni qo‘llab-quvvatlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri qilib belgilangan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida sano-atning etakchi sohaslarini yangi texnologiyalarga o‘tishda tobora o‘z o‘rnini topib bormoqda. Ular yangi fikrlar va ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangi axborot texnologiyalarini joriy qilish bilan ish jarayonini ta‘minlovchi butun tizimni asosiy bog‘lovchilik sifatini o‘zlarida namoyon etmoqdalar.

Bugungi kunga kelib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarishda, xalq iste‘moli mollarini, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda boshqa sohalarda faoliyat ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar 2024 yilning 1 aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 401,3 mingtani tashkil etdi. Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining soni har 1000 aholiga 13,4 birlikni tashkil qildi¹.

¹ <https://stat.uz>



Respublikmizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi sharoitlar yaratilgan:

1. Kichik biznes sub'yektlarining ro'yxatdan o'tish vaqti 30 daqiqani tashkil etadi. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tish uchun faqat bir dona, yuridik shaxs sifatida kichik korxonani ro'yxatga olishda esa - ikki dona hujjat talab etiladi.

2. Deyarli barcha tarmoqdagi kichik korxonalar kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishning muhim omili hisoblanadigan yagona soliq to'lovi stavkasi, realizatsiya qilingan tovarlar va xizmatlar hajmining 5% ni tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda kichik biznes sub'yektlari uchun yagona ijtimoiy to'lovning amaldagi stavkasi 15% ni tashkil etadi.

1. Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalariga besh yil davomida ular ro'yxatdan o'tgan kunidagi soliq va majburiy to'lovlar stavkasini qo'llash huquqi beriladi.

2. Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash quyidagi yo'llar orqali amalga oshirilmoqda: banklar tomonidan imtiyozli stavkalar bo'yicha kreditlar berish; tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining tadbirkorlik faoliyatiga berilgan kredit mablag'larining 50% miqdoridagi kafillik va tijorat banklari kreditlari bo'yicha hisoblangan foiz xarajatlarini qoplash.

3. Tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga mas'ul institut tomonidan biznes manfaatlari himoyalangan. O'zbekistonda kichik biznes sub'yektlari faoliyatini rejadan tashqari tekshirish bekor qilindi, shuningdek birinchi marta sodir etilgan moliyaviy-xo'jalik huquqbuzarlik uchun tadbirkorlik sub'yektlari ma'muriy jarimalarning barcha turlaridan ozod etilgan.

4. Respublikaning barcha hududlarida tadbirkorlik sub'yektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatuvchi "yagona darcha" tamoili ostida faoliyat ko'rsatadigan markazlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi markazlar tashkil qilingan.



Tadbirkorlik faoliyatini endi boshlovchi sub'yektlar uchun o'zlarining biznes rejalarini tuzish, huquqiy va amaliy ko'mak berish, shuningdek faoliyatlari uchun zarur ma'lumotlarni olishlari uchun "biznes-inkubatorlar tashkil etilgan.

5. Respublika bo'yicha tadbirkorlarga biznes yuritish bo'yicha o'quv kurslari, xususiylashtirilgan ob'yektlar bazasida loyihalar amalga oshirish, 5 yil muddatga nol stavkada ijara asosida yer maydonlari ajratish orqali yosh tadbirkorlar uchun klasterlar tashkil etildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning statistik tahlil:



1. O'zbekistonda ro'yxatdan o'tgan kichik biznes sub'ektlari soni barqaror o'sishda. 2023 yil holatiga ko'ra, mamlakatda kichik biznes sub'ektlari soni 500 mingdan oshdi, bu esa o'tgan yilga nisbatan 10% o'sishni ko'rsatadi.

2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatdagi umumiy ishchi kuchining 75% ini tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelyapti.

3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YIMdagi ulushi 2023 yilda 51.2% ni tashkil etyapti. Bu ko'rsatkich kichik biznesning iqtisodiyotdagi muhim rolini ko'rsatadi.

4. Kichik biznes sub'ektlari mamlakat eksportining 30% ini ta'minlaydi. Bu esa ular xalqaro bozorlar uchun ham muhim o'yinchi ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, 2023- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIM dagi ulushi quyidagi chizmada akas ettirilgan(1-rasm).





2021


2022

2023

1-rasm. Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIM

dagi ulushi, % da

Ushbu chizmadan ko'rinadiki 2023- yilning yanvar – dekabrilarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YAIM dagi ulushi 51,2% ni tashkil etdi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 16,5 birlikni tashkil qildi. 2023 yilning yanvar-dekabrida 98,9 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davrga nisbatan 6,1% ga ko'pligidir. Shuningdek 2016-2023 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi dastlabki yillarda o'sib borganligini kuzatsak, 2020 yildan keyingi yillarda biroz pasayish kuzatilmoqda. (2-rasm)



2-rasm 2016-2023 yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2023-yilda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Toshkent shahri – 16.2%, Samarqand viloyati – 10.9%, Qashqadaryo viloyati – 9.6%, Farg'ona viloyati – 9.2%, Toshkent viloyati – 7.9%, Andijon viloyati – 7.2%, Buxoro viloyati – 6.5% hissalariga to'g'ri keladi.

2023 yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 3711,2 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 22,3 % ini tashkil etgan bo'lsa, hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Sirdaryo viloyatida - 76.4%, Surxondaryo viloyatida - 60.0%, Xorazm viloyatida - 51.7%, Qashqadaryo viloyatida - 51.6%, Namangan viloyatida – 49.6% va Farg'ona viloyatida – 49.4%, eng past ko'rsatkich Navoiy viloyatida – 11.9% tashkil etdi².

Hududlar bo'yicha 2024 yil 1 aprel holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlikda quyidagi chizmada aks ettirilgan:

2024 yilning 1 aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Toshkent shahrida 87,613 tani yoki jamiga nisbatan 21,8,% ni, Toshkent viloyatida 37,179 tani yoki jamiga nisbatan 9,2 % ni va Samarqand viloyatida 36,397 tani yoki 9,0 % ni tashkil etdi.(1-jadval)

2024 yilning 1 aprel holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi	401,3
Qoraqalpog'iston Resp.	21,3

² <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/metadata-2>




Toshkent sh.	87,6
Tashkent viloyati	37,2
Samarqand viloyati	36,4
Farg'ona viloyati	32,6
Buxoro viloyati	26,5
Qashqadaryo viloyati	25,9
Andijan viloyati	23,8
Xorazm viloyati	22,8
Namangan viloyati	22,4
Surxondaryo viloyati	19,7
Navoiy viloyati	18,7
Jizzax viloyati	15,8
Sirdaryo viloyati	10,6

2023 yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 12389,0 million AQSH dollarini yoki umumiy import hajmining 48,7 % ini tashkil etdi. 2023-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Surxondaryo viloyatida - 89.6%, Jizzax viloyatida – 84.4%, Namangan viloyatida – 78.6%, Xorazm viloyatida - 74.7% va Farg'ona viloyatida – 72.6%, eng past ko'rsatkich Andijon viloyatida – 13.1% tashkil etmoqda.



O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining soni dinamikasi (har 1000 aholiga nisbatan, birlikda, 3-rasm).



2017 yildan keyingi davrda mamlakatimizda xususiylashtirish jarayonlari yaxlit reja asosida o‘tkazilib, tizimli va mantiqiy asosda davom ettirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Prezidentining 2020 yil 28

oktyabrdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalarini isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora- tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga ko‘ra, ilk marta transformatsiya qilinadigan davlat korxonalarini ro‘yxati tuzib chiqildi. Chunki davlat korxonalarini transformatsiya qilmasdan turib, investorlar uchun ularning jozibadorligini oshirish juda mushkul. Shuningdek, hujjat bilan davlat ob‘ektlarini “nol” qiymatida sotish amaliyotiga barham berildi. O‘tgan yili ham pandemiya tufayli murakkab vaziyatga qaramasdan, xususiylashtirish jarayonlarini faollashtirish bo‘yicha bir qator dadil qadamlar qo‘yildi. Xususan, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15 noyabrda “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi Qonunni imzoladi. Unga muvofiq, xususiylashtiriladigan hududlar ro‘yxati kengaydi. Endilikda er uchastkalarini xususiy uy-joy qurish uchun sotib olish mumkin, shuningdek, investorlarga xususiylashtirilgan davlat ob‘ektlari joylashgan erlarni sotib olishga ham ruxsat berildi.

2024 yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi % da.(2-jadval)

2024 yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

(2-jadval)³

Qoraqalpog'iston Resp.	4.9
Toshkent sh.	21
Tashkent viloyati	8.2
Samarqand viloyati	10.1
Farg'ona viloyati	8.6
Buxoro viloyati	5.2
Qashqadaryo viloyati	6.2
Andijan viloyati	5.3
Xorazm viloyati	7.2
Namangan viloyati	5.6
Surxondaryo viloyati	5.4
Navoiy viloyati	3.7
Jizzax viloyati	5.9
Sirdaryo viloyati	2.7

2024 yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishida eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, bu sohada 21% ulushni egallaydi. Poytaxt sifatida Toshkent iqtisodiy va moliyaviy markaz bo'lib, biznes uchun qulay muhit

³ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika>



va infratuzilmani ta'minlab kelmoqda. Shu bilan birga, poytaxtda moliyaviy resurslarga, texnologik imkoniyatlarga va bozorga kirish imkoniyatlari yuqori hisoblanadi. Samarqand viloyati 10.1% ulush bilan ikkinchi o'rinda turadi. Bu viloyat tarixiy va madaniy ahamiyati bilan birga, turizm va xizmat ko'rsatish sohasida katta imkoniyatlarga ega. Samarqandda kichik biznes ko'pincha turizm bilan bog'liq bo'lib, bu sohada yangi ish o'rinlari yaratishga katta hissa qo'shadi. Farg'ona va Toshkent viloyatlari mos ravishda 8.6% va 8.2% ulush bilan uchinchi va to'rtinchi o'rinlarda turadi. Bu viloyatlarda infratuzilma muhitida sanoat korxonalarini va qishloq xo'jaligi bilan ajralib turadi. Kichik biznes ko'pincha qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Qashqadaryo va Xorazm viloyatlari mos ravishda 6.2% va 7.2% ulush bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bu viloyatlar qishloq xo'jaligi, chorvachilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Buxoro viloyati 5.2% ulush bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida o'z o'rniga ega. Buxoro qadimiy shahar bo'lib, turizm va xizmat ko'rsatish sohalarida katta salohiyatga ega. Andijon va Namangan viloyatlari mos ravishda 5.3% va 5.6% ulush bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishida faol ishtirok etmoqda. Ushbu viloyatlarda asosan qishloq xo'jaligi va savdo sohalarida faoliyat yuritadi. Surxondaryo va Jizzax viloyatlari mos ravishda 5.4% va 5.9% ulush bilan kichik biznes sohasida muhim o'rin tutadi. Bu viloyatlar tabiiy resurslar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda kuchli pozitsiyaga ega hisoblanadi. Navoiy va Sirdaryo viloyatlari mos ravishda 3.7% va 2.7% ulush bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida nisbatan kam rivojlangan viloyatlar hisoblanadi. Bu viloyatlarda kichik biznes ko'pincha sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi 4.9% ulush bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishida o'z o'rniga ega. Bu hududda kichik biznes ko'pincha qishloq xo'jaligi va turizm sohalarida faoliyat yuritadi. Toshkent shahri



va Samarqand viloyati bu sohada yetakchilik qilsa, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida rivojlanish darajasi nisbatan past. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun har bir mintaqada moliyaviy resurslar, infratuzilma va ta'lim dasturlarini kengaytirish zarur. Bu esa iqtisodiy rivojlanish va yangi ish o'rinlarini yaratishga katta hissa qo'shadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan joriy yil boshida qabul qilinib, kelgusi 5 yilga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida ham davlatning iqtisodiyotdagi roli va ulushini keskin qisqartirish asosiy besh yo'nalishdan biri sifatida belgilangan⁴.

Hulosa qilib shuni aytishim mumkinki, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim qismi hisoblanadi. Ularning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun moliyaviy resurslar, qulay tadbirkorlik muhiti, texnologik rivojlanish va ta'lim tizimini takomillashtirish zarur. Bu chora-tadbirlar amalga oshirilsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiyotining mustahkam asosiga aylanadi. Shuningdek, kelgusi 5 yilga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida ham davlatning iqtisodiyotdagi roli va ulushini keskin qisqartirish asosiy besh yo'nalishdan biri sifatida belgilangan, davlat aktivlarini xususiylashtirish orqali 2026 yilga qadar eksklyuziv huquqlarni bekor qilish va davlat korxonalarini xususiylashtirish hisobidan 25 dan ortiq faoliyat turlari bo'yicha monopoliyalar tugatiladi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda bir qancha tavsiyalarni amalga oshirish kerak:

1. Kichik bizneslar uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bank kreditlari va davlat subsidiyalarini olish imkoniyatlari oshirilishi lozim.

⁴ <https://stat.uz/uz/nashrlar/3656-o-zbekistonda-kichik-tadbirkorlik>



2. Tadbirkorlik muhitini yaxshilash uchun byurokratik to'siqlarni kamaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va qulay biznes yuritish sharoitlarini yaratish kerak.

3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun innovatsion texnologiyalar va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu, raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi zarur.

4. Tadbirkorlar uchun ta'lim va kasbiy tayyorlov dasturlarini kengaytirish, ularni zamonaviy biznes yuritish usullari bilan tanishtirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" Qonuni. 2000 yil 25 may. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi., 2000 y., № 5.

2. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash fondi (Biznes-fondi)ni tashkil etish to'g'risida. O'zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar Palatasini tashkil qilish to'g'risidagi Farmonlari 2005y.

3. "Xususiy korxonalar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2003 yil 11 dekabr. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami., 2004 y., № 3.

4. Teshabaeva, O. N. (2021). Kichik biznes va tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va ahamiyati. UzACADEMIA ilmiy jurnali, 87-97.

5. Abdullayev Yo. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. T.: O'quv qo'llanma. "Mehnat", 2002.

I. Internet saytlari

1. www.lex.uz

2. www.stat.uz